

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq va baliqchilik xo'jaligining ahamiyati
Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

1b-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Qishloq va baliqchilik xo'jaligi non va non mahsulotlari, vitaminlarga boy meva-sabzavotlar, oson hazm bo'ladigan hayvon oqsillari, vitaminlar va minerallarning yuqori miqdori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi soha sifatida oziq-ovqat xavfsizligi tizimida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Maqolada qishloq va baliqchilik xo'jaligining ahamiyati, sohada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi tahlili keltirilgan. Shuningdek sohada uchraydigan ayrim kamchiliklar hamda muammolarni bartaraf etish, sohani rivojlantirish uchun tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyoj, vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati, qishloq xo'jaligi ekinlari, baliqlarni saqlash va ko'paytirish, aholi jon boshiga qishloq va baliq xo'jaligi mahsulotlari, chorvachilik mahsulotlari, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar.

Abstract: Agriculture and fisheries as a producer and supplier of food products with a high content of bread and bakery products, vitamin-rich fruits and vegetables, easily digestible animal proteins, fat-soluble vitamins and minerals occupies one of the leading positions in the food safety system. The article presents an analysis of the importance of agriculture and fisheries, the volume of products produced in the sector. Also, appropriate recommendations are given for the elimination of some shortcomings and problems encountered in the field, and for the development of the field.

Key words: food products, food needs, food products rich in vitamins, quality of agricultural products, agricultural crops, keeping and breeding fish, per capita agriculture and fishery products, animal husbandry products, farmers and homesteads, farms, organizations performing agricultural activities.

Kirish

Dunyoda har yili qariyb to'rt mlrd. tonna oziq-ovqat ishlab chiqariladi, agar ulardan oqilona foydalanilib, taqsimlansa, bu aslida sayyora ahlining barchasiga yetgan bo'lardi. Bir qator omillar tufayli dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilib boryapti. Jumladan, oxirgi ikki-uch yilda kuzatilayotgan jahondagi siyosiy-iqtisodiy inqiroz esa mazkur

muammoning keskin tus olishiga sabab bo'lmoqda. Uning asoratlari ayrim dunyo mamlakatlarida kuchli sezilmoqda.

Aholining oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojlarini davlat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlab beruvchi asosiy iste'mol tovarlaridan bo'lgan non va non mahsulotlari, meva-sabzavotlar, poliz mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash dolzarb masala hisoblanadi. Bunda asosan qishloq xo'jaligi muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "O'zbekiston zamini o'zining qadimiy va boy dehqonchilik an'analari, g'oyat xilma-xil, mazali va noyob qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan azaldan shuhrat qozonib keladi. Agrotarmoq iqtisodiyotimizdagi yetakchi sektorlardan biri bo'lib, mehnatga layoqatli aholimizning 27 foizi ushbu sohada mehnat qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda"[1].

Binobarin, so'nggi uch yilda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo'lgan yondashuv mutlaqo o'zgardi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi. Mazkur sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, belgilangan vazifalarni oqilona bajarish dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism

Qishloq va baliqchilik xo'jaligi – qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarini, ipak qurtini, baliqlarni saqlash va ko'paytirish, suv organizmlarini ovlashni o'z ichiga oladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Namangan viloyatida 2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 946,4 mlrd. so'mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 2 489,9 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 439,3 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 17,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qishloq va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) 99,4 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda

ko'rsatilgan xizmatlarning (2023- yilning yanvar-mart oylarida 84,5 %), 0,6 % – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi [3].

1-jadval

**Hududlar kesimida qishloq va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlar hajmi
(2024- yil yanvar-mart)**

Hududlar	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlar hajmi		Aholi jon boshiga, (ming so'm)
	mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, o'sish sur'ati, % da	
Viloyat jami	2 946,4	104,4	958,8
Namangan sh.	543,6	101,8	778,3
Mingbuloq	150,3	109,8	1 095,1
Kosonsoy	180,1	108,0	788,3
Namangan t.	284,8	106,2	1 474,6
Norin	181,8	104,3	1 032,1
Pop	198,8	105,7	842,3
To'raqo'rg'on	278,3	104,4	1 132,3
Uychi	258,8	111,2	1 111,5
Uchqo'rg'on	179,0	106,5	963,9
Chortoq	205,0	100,4	952,0
Chust	261,2	100,6	912,5
Yangiqo'rg'on	224,7	100,5	945,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aholi jon boshiga qishloq va baliq xo'jaligi mahsulotlari 2024 yil birinchi kvartalda 958,8 ming so'mdan to'g'ri kelgan. Viloyat hududi bo'yicha eng katta ko'rsatkich Namangan tumaniga to'g'ri kelib u 1474,6 ming so'mni tashkil etgan.

2024- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Namangan shahri 543,6 mlrd. so'm) va

Namangan tumanida (284,8 mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kosonsoy (180,1 mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (179,0 mlrd. so'm) va Mingbuloq tumalarini (150,3 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on (106,5 %) Kosonsoy (108,0 %) Mingbuloq (109,8 %) va Uychi (111,2 %) tumanlarida kuzatildi. Chortoq. (100,4 %), Yangiqo'rg'on tumanida (100,5 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 450,7 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 153,5 mlrd. so'mni (105,1 %), chorvachilik mahsulotlari- 2 297,2 mlrd. so'mni (104,3 %) tashkil qildi.

2-jadval

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da

Hududlar	Dehqonchilik mahsulotlari	Chorvachilik mahsulotlari
Namangan sh.	0,7	99,3
Mingbuloq	3,6	96,4
Kosonsoy	8,5	91,5
Namangan t.	7,9	92,1
Norin	13,1	86,9
Pop	9,6	90,4
To'raqo'rg'on	5,0	95,0
Uychi	10,3	89,7
Uchqo'rg'on	5,6	94,4
Chortoq	3,7	96,3
Chust	3,1	96,9
Yangiqo'rg'on	12,7	87,3

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibida Norin tumani dehqonchilik bo'yicha eng kata ulushi 13,1 foizga teng mahsulot yetishtirgan bo'lsa, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha Namangan shahri umumiy qishloq xo'jaligining 99,3 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 84,1 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,4 % i - fermer xo'jaliklariga, 4,5 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Mavzu doirasida olib borgan tadqiqotlardan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, sohani rivojlanishida ayrim to'siq bo'luvchi muammolar ham mavjud. Jumladan ularga: qishloq xo'jaligi tabiat qonunlari amal qiluvchi soha bo'lganligi uchun uning faoliyatiga kutilmagan tabiiy hodisalarning ta'sir etib turishi (qurg'oqchilik, sel); ayrim hududlarda sho'r, sifati past ekin maydonlarining ulushining sezilarliligi; yer unumdorligining pasayib borishi; sohani rivojlantirishda yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni borligi; investitsiyalar yo'naltirishdagi to'siqlar; oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasi infrastrukturasi rivojlantirishga ehtiyojni mavjudligi; sun'iy baliq boqish xavfzalarini ko'paytirishga ehtiyojni mavjudligi; baliqning yangi navlarini ko'paytirish va yetazib berish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ehtiyojni yuqoriligi; suv resurslari bilan ta'minlashdagi muammolar va boshqa shu kabilar.

Xulosa va tavsiyalar

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq va baliqchilik xo'jaligi ahamiyati katta bo'lib, uni quyidagilarda ko'rish mumkin: aholini oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni qondirishda; qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan ta'minlashda va provard mahsulotlar iste'mol qilish vaqtini uzaytirishda (kelajakdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishda); insonlarni hayoti va sog'ligi uchun kerakli bo'lgan vitaminlar bilan ta'minlashda; insonlar uchun zarur bo'lgan oqsilga boy mahsulotlar bilan ta'minlashda; aholini ocharchilikdan saqlashi va millatni davom etishida; yakka, hududiy va global xavfsizlikni ta'minlashda va boshqa shu kabilar. Bu to'g'ridan-to'g'ri sohada yetishtirilayotgan mahsulot hajmi va sifatiga bog'liq. Sohani rivojlantirish va unda yetishtiriladigan mahsulot hajmini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: mahsulotlari ishlab chiqarishda, avvalo, ko'p sonli qishloq xo'jaligi ekinlariga ega bo'lgan sabzavotchilikda mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish, tuproq hosildorligini qayta tiklash va oshirishga xizmat qiladigan almashlab ekish rasmlarini joriy qilish; kerakli yo'nalishga investitsiyalar joriy etishni kuchaytirish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun sharoitlar yaratish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mehnat va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilish; qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini integratsiyalash va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferentsiya ishtirokchilariga. <https://president.uz/uz/lists/view/6645>
2. **Xolmuradov R. va boshqalar.** Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash – davr talabi. <https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavfsizligini-taminlash-davr-talabi>.
3. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari. <http://nam.stat.uz/>